

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,

FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

PSIXIATRIYA VA NARKOLOGIYA KATAPRASI



70910211 – Psixiatriya

MUTAXASSISLIGI BO'YICHA MAGISTRATURA

I-YIL PSIXIATRIYA MODUL ISHCHI DASTURI

Bilim sohasi:

500000

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot

Ta'lim sohasi:

510000

Sog'liqni saqlash

Toshkent – 2024

Modul dasturi Toshkent tibbiyot akademiyasida ishlab chiqilgan.

Modul dasturi Toshkent tibbiyot akademiyasi Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2024-yil \_\_\_-\_\_\_-\_\_\_) dagi \_\_\_-\_\_\_-\_\_\_-sonli bayonoma).

#### Tuzuvchilar:

Shadmanova L.Sh.

Toshkent tibbiyot akademiyasi, 1-son davolash fakulteti "Psixiatriya va narkologiya" kafedrasida dotsenti

Yadgarova N.F.

Toshkent tibbiyot akademiyasi, 1-son davolash fakulteti "Psixiatriya va narkologiya" kafedrasida dotsenti, "Narkologiya" mutaxassisligi bo'yicha magistratura direktori



#### Taqirizchilar:

1-chi taqirizchi:  
Xodjayeva N.I.

Toshkent tibbiyot akademiyasi, 1-son davolash fakulteti "Psixiatriya va narkologiya" kafedrasida professori, t.f.d.

Tashqi taqirizchi:  
Sultanov Sh.X.

Toshkent davlat stomatologiya instituti terapevtik yo'nalishlar №3 kafedrasida mudiri, t.f.d., dotsent

Magistratura bo'limi boshlig'i:

Impamov A.A.

Kafedra mudiri:

Ashurov Z.Sh.

O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i:

Azizova F.X.

#### 1. O'quv modulining dolzarbligi va oliy ta'limdagi o'rni

Psixiatriya fani — ruhiy kasalliklarning etiologiyasi, patogenezi, uning yuzaga kelish mexanizmlari va ko'rinishi, ularni davolash hamda yordam ko'rsatishni tashkillashtirishni o'rgatadi. Psixiatriya fani asosiy psixopatologik sindromlar va xususiy psixiatriyaga bo'lib o'rganiladi.

Asosiy psixopatologik sindromlar psixiatriya fanining ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Asosiy psixopatologik sindromlar fani psixiatriya predmeti va vazifalari, kasalliklarning etiologiya va patogenezi, psixiatriyaning rivojlanish tarixi va asosiy yo'nalishlari, O'zbekistonda psixiatrik yordamni tashkillashtirish, ruhiy buzilishlarning umumiy qonun-qoidalarini o'rganadi. Shuning uchun har bir shifokor, mutaxassisligidan qat'iy nazar, bemorni psixiatrik jihatdan ham tekshirishni bilishi kerak. O'z o'rni ro'yxatida ruhiy faoliyat ham kasalliklar rivojlanishiga hissa qo'shadi. Shuning uchun asosiy psixopatologik sindromlarni bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### 2. O'quv modulining maqsadi va vazifalari

**2.1. Modulning maqsadi:** Fanni o'qitishdan maqsad — psixiatriya predmeti va vazifalari, kasalliklarning etiologiya va patogenezi, psixiatriyaning rivojlanish tarixi va asosiy yo'nalishlari, psixopatologik buzilishlarning umumiy qonun-qoidalarini, psixiatriyadagi psixopatologik sindromlar, umumiy sindromlar va ularning sabablarini, ruhiy kasalliklarning umumiy semiotikasi, psixiatriyada tekshiruv usullari, ruhiy kasalliklarning diagnostikasi va terapevting umumiy masalalarini, sindromlarning patogenezi o'rgatish. Har bir ruhiy kasallikning yoshga qarab va ijtimoiy ta'sir natijasidagi o'zgarishlarni asosiy qonuniyatlarini o'rganish, bemorlarda davolash va profilaktika qilib ko'nikmalarni egallashdan iboratdir. Mana shu ko'nikmalarni puxta egallagan yuqori malakali mutaxassis tayyorlash asosiy maqsadni tashkil etadi.

#### 2. Modulning vazifalari:

O'quv fanining vazifalari:

- psixiatriya bo'yicha magistraturada o'qitishning asosiy maqsadi zamonaviy psixiatriya amaliyotida sertifikatlashtirish va litsenziyalash talablariga javob beruvchi hamda yetarli darajada bilim, amaliy ko'nikmalar bilan qurollangan yuqori malakali mutaxassis psixiatriyalarini tayyorlashdir.
- zamonaviy usullarni o'rganish.
- psixiatriyani boshqa yondosh kasalliklari bilan bog'liq bo'lgan patologiyalarini zamonaviy usullar bilan tashxislash, usullarni ishlatishtirish bo'yicha bilimlarni rivojlantirish.
- psixiatriya amaliyotida ishlatiluvchi davolash diagnostika tadbirlarini yetarli hajmini mustaqil aniqlashni rivojlantirish.
- ambulator sharoitlarda psixiatriyadagi turli xil buzilish va kasalliklari bor bo'lgan bemorlarga kerakli hamda adekvat davolash diagnostik muolajalarni bajarishni o'rgatish.
- psixiatrik kundalik amaliyotida ishlatiluvchi zamonaviy laborator va instrumental tekshirish natijalarini tahlil qilishni o'rganishni rivojlantirish.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 20\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_  
dagi “\_\_” – sonli buyrug‘ining \_\_\_\_ -ilovasi bilan modul dasturi ro‘yxati  
tasdiqlangan.

## **1. O‘quv modulining dolzarbligi va oliy ta’limdagi o‘rni**

Psixiatriya fani – ruhiy kasalliklarning etiologiyasi, patogenezi, uning yuzaga kelish mexanizmlari va ko‘rinishi, ularni davolash hamda yordam ko‘rsatishni tashkillashtirishni o‘rgatadi. Psixiatriya fani asosiy psixopatologik sindromlar va xususiy psixiatriyaga bo‘lib o‘rganiladi.

Asosiy psixopatologik sindromlar psixiatriya fanining ajralmas bo‘lagi hisoblanadi. Asosiy psixopatologik sindromlar fani psixiatriya predmeti va vazifalari, kasalliklarning etiologiya va patogenezi, psixiatriyaning rivojlanish tarixi va asosiy yo‘nalishlari, O‘zbekistonda psixiatrik yordamni tashkillashtirish, ruhiy buzilishlarning umumiy qonun-qoidalarini o‘rganadi. Shuning uchun har bir shifokor, mutaxassisligidan qat’iy nazar, bemorni psixiatrik jihatdan ham tekshirishni bilishi kerak. O‘z o‘rnida ruhiy faoliyat ham kasalliklar rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Shuning uchun asosiy psixopatologik sindromlarni bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

## **2. O‘quv modulining maqsadi va vazifalari**

**2.1. Modulning maqsadi:** Fanni o‘qitishdan maqsad – psixiatriya predmeti va vazifalari, kasalliklarning etiologiya va patogenezi, psixiatriyaning rivojlanish tarixi va asosiy yo‘nalishlari, psixopatologik buzilishlarning umumiy qonun-qoidalarini, psixiatriyadagi psixopatologik sindromlar, umumiy sindromlar va ularning sabablarini, ruhiy kasalliklarning umumiy semiotikasi, psixiatriyada tekshiruv uslublari, ruhiy kasalliklarning diagnostikasi va terapiyasining umumiy masalalarini, sindromlarning patogenezi o‘rgatish. Har bir ruhiy kasallikning yoshga qarab va ijtimoiy ta’sir natijasidagi o‘zgarishlarni asosiy qonuniyatlarini o‘rganish, bemorlarda davolash va profilaktika qilish ko‘nikmalarini egallashdan iboratdir. Mana shu ko‘nikmalarni puxta egallagan yuqori malakali mutaxassis tayyorlash asosiy maqsadni tashkil etadi.

### **2. Modulning vazifalari:**

O‘quv fanining vazifalari:

- psixiatriya bo‘yicha magistraturada o‘qitishning asosiy maqsadi zamonaviy psixiatriya amaliyotida sertifikatsiya va litsenziyalash talablariga javob beruvchi hamda yetarli darajada bilim, amaliy ko‘nikmalar bilan qurollangan yuqori malakali mutaxassis psixiatrlarni tayyorlashdir;
- zamonaviy usullarni o‘rganish;
- psixiatriyani boshqa yondosh kasalliklari bilan bog‘liq bo‘lgan patologiyalarini zamonaviy usullar bilan tashxislash. usullarni ishlatish bo‘yicha bilimlarni rivojlantirish;
- psixiatriya amaliyotida ishlatiluvchi davolash diagnostika tadbirlarini yetarli hajmini mustaqil aniqlashni rivojlantirish;

- ambulator sharoitlarda psixiatriyadagi turli xil buzilish va kasalliklari bor bo‘lgan bemorlarga kerakli hamda adekvat davolash diagnostik muolajalarni bajarishni o‘rgatish;
- psixiatr kundalik amaliyotida ishlatiluvchi zamonaviy laborator va instrumental tekshirish natijalarini tahlil qilishni o‘rganishni rivojlantirish;
- psixiatriya tez yordam holatlari bilan bog‘lik bo‘lgan holat va kasalliklarida zamonaviy darajada yuqori malakali yordam ko‘rsatishni rivojlantirish;
- ruhiy kasalliklari bor bo‘lgan bemorlarda ijtimoiy hamda mehnat rehabilitatsiya tadbirlar majmuasini o‘tkazish bo‘yicha bilimlarni rivojlantirish;
- ruhiy kasalliklarni tarqalishini kamaytirish bo‘yicha chora tadbirlarini amalga oshirishni o‘rganish.

### **2.3. Modul bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar:**

#### **Talaba:**

- aholiga psixiatrik yordamni tashkil qilishning tamoyillari, kasalxona va undan tashqarida bo‘lgan psixiatrik yordami;
- **umumiy psixiatriyaning ilmiy asoslari;**
- psixiatriyaning dolzarb muammolari;
- ruhiy kasalliklarning nozologik shakllari va ularning belgilanishi;
- tibbiy hujjatlarni to‘g‘ri olib borish;
- psixiatriyaning qonun-qoidalarini;
- sezgi va idrokning neyrofiziologik mexanizmlarini, sezgi va idrok buzilishlarining simptomlarini, patofiziologik asoslarini, patogenezing zamonaviy nazariyalarini; zamonaviy tashxis va davolash usullarini;
- diqqatning neyrofiziologik mexanizmlarini, diqqat buzilishi simptomlarini, diqqat buzilishlarining patofiziologik asoslarini va patogenezing zamonaviy nazariyalarini;
- xotiraning neyrofiziologik mexanizmlarini, xotira buzilishi simptomlarini, xotira buzilishlarining patofiziologik asoslarini, zamonaviy tashxis va davolash usullarini;
- fikrlash va nutqning neyrofiziologik mexanizmlarini, assotsiativ jarayonning buzilishini; vasvasa, o‘ta qimmatli g‘oyalar simptomlarini, fikrlashning tezligi, tuzilishi va mazmun jihatidan buzilish simptomlarini, fikrlash va nutq buzilishlari patogenezing zamonaviy nazariyalarini va tekshirish usullarini;
- xususiy psixiatriyaning ilmiy asoslari;
- ruhiy va narkologik bemorlarni davolash usullari;
- ruhiy va narkologik bemorlarni rehabilitatsiya usullari;
- psixoterapiya usullari **haqida tasavvurga ega bo‘lishi;**
- shizofreniya etiologiyasi va patogenezing zamonaviy nazariyalarini, tasnifini, kechish turlarini, qiyosiy tashxisini, hamma turlarini zamonaviy davolash va profilaktika usullarini;

– affektiv kasalliklarning etiologiyasi va patogenezining zamonaviy nazariyalarini, klinik ko‘rinishini, kechishini, qiyosiy tashxisini, affektiv kasalliklarni zamonaviy davolash va profilaktika usullarini;

– shizoaffektiv psixozning etiologiyasi va patogenezining zamonaviy nazariyalarini, tasnifini, kechish turlarini, qiyosiy tashxisini, hamma turlarini zamonaviy davolash va profilaktika usullarini;

– keksa yoshdagi funksional psixozlarning etiologiyasi va patogenezining zamonaviy nazariyalarini, tasnifini, kechish turlarini, qiyosiy tashxisini, hamma turlarini zamonaviy davolash va profilaktika usullarini;

– epilepsiya kasalligining etiologiyasi va patogenezining zamonaviy nazariyalarini, klinik ko‘rinishini, kechish turlarini, qiyosiy tashxisini, zamonaviy davolash va profilaktika usullarini;

– ruhiy rivojlanish buzilishlarining etiologiyasi va patogenezining zamonaviy nazariyalarini, klinik belgilarini, tasnifini, dinamikasini, qiyosiy tashxisini, zamonaviy davolash va profilaktika usullarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***

– ruhiy mehnat ekspertizasini o‘tkazish;

– ruhiy bemorlarning sud-psixiatrik ekspertizasini o‘tkazish;

– ruhiy bemorlarning harbiy-tibbiy ekspertizasini o‘tkazish;

– psixoprofilaktika va psixogigiena usullarini qo‘llash ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur.***

Magistratura ixtisosligiga qo‘yiladigan muayyan talablar kadrlar buyurtmachilarining talablari va ushbu mutaxassislik bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari hisobga olingan holda oliy ta’lim muassasasi tomonidan belgilanadi.

### **3. Asosiy qism**

***3.1. Moduldagi amaliy (seminar, laboratoriya) mashg‘ulotlari mavzulari, tashkil etish bo‘yicha umumiy ko‘rsatma va tavsiyalar:***

**1 mavzu. Psixiatriyaning tarixi. Psixiatriya xizmatini tashkil qilish.**

Ruhiy kasalliklar shifoxona va ruhiy-asab dispanserlarning tuzilishi va faoliyati. Maslahat berish ko‘nikmalari.

**2 mavzu. Aholiga psixiatrik yordam ko‘rsatishni tashkil etish.** Psixiatrik yordam to‘g‘risidagi Qonun. Bemorlarning huquq va majburiyatlari. Vrach-psixiatrikning huquq va majburiyatlari.

**3 mavzu. Ruhiiy kasalliklar epidemiologiyasi.**

Ruhiy kasalliklar tarqalganligi. Psixiatriyada stigma tushunchasi.

**4 mavzu. Ruhiiy kasalliklar tasnifi.**

Klinik tasnif, XKT-10.

**5 mavzu. Ruhiiy kasalliklar diagnostik usullari.**



Ruhiy kasalliklar klinik diagnostikasi. Psixiatriyada klinik intervyu va uning baholanishi. Shifokor va bemor. Ruhiiy kasallikning tarixi. Psixiatriyada diagnostik usullari. Patopsixologik tekshirish. Eksperimental-psixologik testlarni baholash. Psixiatriyada diagnostik usullari. Neyrofiziologik va boshqa tekshirish usullari.

### **6 mavzu. Ruhiiy kasalliklar etiopatogenezi. Zamonaviy nazariyalar.**

Psixiatriyada neyrobiologiya va genetikaning o'rnini.

### **7 mavzu. Sezgi buzilishlari.**

Sezgining intensivligi buzilishlari. Anesteziya, gipesteziya, patologik ruhiy anesteziya, giperesteziya, giperalgeziya. Sensor sintez buzilishlari. Metamorfopsiya. Autometamorfopsiya. Sezgi buzilishlari. Senestopatiyalar. Elementar, oddiy, algik, termik, psixosensor, interpretativ (organotopik, birlashgan, vasvasasimon, gallyusinator, geometrik). Senesteziyalar. Sinesteziyalar. Senestopatik va senestopixondrik sindromlar.

### **8 mavzu. Idrok buzilishlari.**

Idrokning barqarorligi buzilishi. Idrokning yorilishi. Illyuziya. Affektiv, verbal, pareydolik illyuziyalar. Gallyusinatsiyalar. Ko'rish, eshitish, hid bilish, taktil, enterotseptiv, visseral, endosomatik, motor, vestibular gallyusinatsiyalar. Funksional, reflektor, gipnogogik, gipnopompik gallyusinatsiyalar. Chin va soxta gallyusinatsiyalar. Imperativ gallyusinatsiyalar. Gallyusinatsiyalarning ob'ektiv belgilari. Gallyusinator sindromlar. Gallyusinoz.

### **9 mavzu. Fikrlash buzilishlari.**

Fikrlash dinamikasining buzilishlari. Taxifreniya. Bradifreniya. Fikrlashning taranglab ketishi. Fikrlashning bekiilib ketishi (shperrung). Fikrlashning uzilib Kechishi. Mentizm. Nutq iteratsiyalari. Palilaliya. Verbigeratsiya. Perseveratsiya. Paralogik fikrlash. Polisemantizm. Patologik xayol surmoq. Simvolik fikrlash. Vasvasali g'oya. Persekutor, ekspansiv, depressiv vasvasa. Birlamchi, ikkilamchi vasvasa.

**10 mavzu. Diqqat buzilishlari.** Diqqat ko'lamining torayishi. Diqqat chuqurligining kamayishi. Diqqatning oriqlashi, taranglashi. Diqqat yo'nalganligining buzilishi. Paraprozeksiya. Aprozeksiya. Taqsimlanish buzilishi.

**11 mavzu. Intellekt (aql) patologiyasi.** Orttilirilgan va tugma intellekt pasayishi. Demensiya va aqliy zaiflik. Aqliy zaiflik (oligofreniya)ning tasnifi, klinik belgilari, diagnostikasi. Aqliy zaiflik (oligofreniya) bilan xastalangan bemorlarga psixiatrik yordamini tashkil qilish.

**12 mavzu. Xotira buzilishlari.** Amneziya. Fiksatsion, zo'rayib boradigan, retrograd, anterograd, anteroretrograd amneziya. Tranzitor amnestik epizodlar. Afaziya. Agnoziya. Apraksiya. Affektogen amneziya. Davriy amneziya. Xotiraning skotomizatsiyasi. Gipermneziya. Gipomneziya. Paramneziya. Déjà vu, déjà entendu, déjà vecu, déjà éprouve, déjà raconte. Jamais vu, jamais entendu, jamais vecu, jamais éprouve, jamais raconte. Tanimoq illyuziyasi. Pik reduplikatsiyalangan paramneziasiyasi. Pseudoreminissensiya. Konfabulyatsiya. Kriptomneziyalar. Amnestik sindrom. Klinik belgilari. Diagnostika.

### **13 mavzu. Hissiyot buzilishlari.**

Affekt. Patologik affekt. Kayfiyat. Situativ reaksiyalar. Kayfiyat buzilishlari. Apatiya. Gipotimiya. Eyforiya. Sarosimalik. Vahima. Qo'rquv. Vasvasali kayfiyat.

Emotsional reaksiyalarning buzilishi. Emotsional portlovchanlik, botqoqlik, monotonlik, qo‘pollik, utmaslik, emotsional rezonansning yo‘qolishi. Paratimiya. Emotsional paradoksallik. Emotsional ikkilanish. Affektiv sindromlar. Depressiv sindrom. Nevrotik depressiya. Somatik depressiya. Endogen va reaktiv depressiya. Depressiyaning psixotik darajasidagi buzilishlar. Depressiv sindromning turlari. Depressiv-paranoid sindrom. Kotar sindromi. Depressiv stupor. Depressiv ajitatsiya. Maniakal sindrom. Depersonalizatsiya va derealizatsiya.

#### **14 mavzu. Iroda buzilishlari.**

Faollik buzilishi. Abuliya. Giperbuliya. Intilish buzilishlari. Dromomaniya. Dipsomaniya. Piromaniya. Kleptomaniya. Instinktlar buzilishlari. Suitsid. Parabuliya. Apato-abulik sindrom. Diagnostika va klinik ko‘rinishi.

#### **15 mavzu. Mayl buzilishlari.**

Faollik buzilishi. Abuliya. Giperbuliya. Intilish buzilishlari. Dromomaniya. Dipsomaniya. Piromaniya. Kleptomaniya. Instinktlar buzilishlari. Psixoseksual buzilishlari. Diagnostika va klinik ko‘rinishi.

#### **16 mavzu. Harakat buzilishlar.**

Stupor. Qo‘zg‘alish. Substupor. Retseptor stupor. Bo‘sh stupor. Lyusid stupor. Effektor stupor. Psixogen, depressiv, gallyusinator, epileptik, maniakal stupor va qo‘zg‘alish. Katatonik sindrom. Katatonik qo‘zg‘alish va stupor. Dyupre simptomi. Negativizm. Mutizm. Katalepsiya. Negativistik stupor. Dong qotib qolish bilan stupor. Gebefrenik sindrom.

#### **17 mavzu. Ong buzilishlari.**

Ongni miqdoriy buzilishlari. Karaxtlik, sopor, koma. Klinik belgilari. Diagnostika. Ongni sifatiy buzilishlari. Delirioz sindromi. Amentiv sindromi. Oneyroid sindromi. Ongni nomoshshomsimon buzilish sindromi.

#### **18 mavzu. Psixopatologik sindromlar.**

Sindromogenez. Pozitiv va negativ sindromlar. Nevrotik va psixotik sindromlar. Funksional va organik sindromlar.

Birlamchi, ikkilamchi vasvasa. Ipoxondrik vasvasa. Vasvasaviy sindromlar. Paranoyyal sindrom. Paranoid sindrom. Paranoid sindromning vasvasali va gallyusinator turlari. Ruhiiy avtomatizmlar. Parafren sindrom. Affektiv-paranoid sindrom. O‘ta qimmatli g‘oyalar. O‘ta qimmatli g‘oyalar sindromi. Yopishkok (shilqim) holatlar. Mavhum shilqimlar (shilqim sanash, unumsiz o‘ylash, shilqim reproduksiya). Shakllangan shilqimlar (fobiyalar, xavotirlar, esdaliklar, haqoratli fikrlar, xohishlar va harakatlar). Obsessiv sindrom.

#### **19 mavzu. Pozitiv va negativ simptom va sindromlari.**

Sindromogenez. Pozitiv va negativ sindromlar. Nevrotik va psixotik sindromlar. Funksional va organik sindromlar.

#### **20 mavzu. Shizofreniya.**

Epidemiologiya. Etiologiya. Patogenez. Zamonaviy nazariyalar. Genetik nazariyalar. Klinik belgilari. Diagnostik mezonlari. Shizofreniyaning shakllari. Shizofreniyada klinik menedjment. Bemorlarni olib borish. Yordam ko‘rsatishni statsionar va ambulator bosqichlari. Zamonaviy davolash usullari. Psixofarmakoterapiya va bemorlarni rehabilitatsiyasi.

### **3.2.1. Amaliy (rotatsiya) mashg'ulotlarining mavzular ro'yxati:**

1. Mavzu. Ruhiy kasalliklarning simptomlari
2. Mavzu. Ruhiy kasalliklarning sindromlari
3. Mavzu. Endogen ruhiy kasalliklar. Shizofreniya

### **3.2.1. Amaliy (seminar, laboratoriya) mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:**

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda qo'yidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

### **3.2.2. Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar**

#### **1. Ruhiy kasalliklarning simptomlari**

**Rotatsiyaning maqsadi:** ruhiy kasalliklarining klinik simptomlarini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

**Talaba quyidagilarni bajara olishi zarur:**

- ruhiy bemorlarning anamnezini yig'ish;
- bemorning har bir ruhiy doirasini baholash va kasallik simptomlarini aniqlash;
- psixopatologik simptomlarni aniqlash uchun eksperimental - psixologik usullarini qo'llash;
- ruhiy bemorlarni klinik, laborator-instrumental va funksional tekshiruvlardan o'tkazish.

#### **2. Ruhiy kasalliklarning sindromlari**

**Rotatsiyaning maqsadi:** psixopatologik sindromlarini va ularning har xil turlarini aniqlash va qiyosiy tashxislash ko'nikmalariga ega bo'lish.

**Talaba quyidagilarni bajara olishi zarur:**

- ruhiy bemorlarni so'rab-surishtirish va ko'zdan kechirish;
- ruhiy statusini baholash va aniqlangan simptomlar asosida sindromal tashxis qo'yish;
- dastlabki sindromni qiyosiy tashxislash;
- laborator-instrumental va psixologik tekshiruv natijalarini tahlil qilish;
- ruhiy kasalliklarida funksional tekshiruv natijalarini tahlil qilish, shu bilan birga rentgenologik va radiologik tekshiruv natijalarini tahlil qilish;
- taxminiy tashxisni qo'yish;
- bemorlarni statsionar yoki ambulator davolanishga ko'rsatmalarni aniqlash va davolash strategiyasini belgilash;
- zarur tibbiy hujjatlarni to'la hajmda olib borish.

#### **3. Endogen ruhiy kasalliklar. Shizofreniya**



**Rotatsiyaning maqsadi:** shizofreniya bilan kasallangan bemorlarni tashxislash va davolash, oldini olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

**Talaba quyidagilarni bajara olishi zarur:**

- shizofreniya bilan kasallangan bemorlarni so‘rab-surishtirish, ruhiy statusini baholash va ko‘zdan kechirish;
- shizofreniyaning kechish turini aniqlash;
- klinik, eksperimental psixologik va instrumental-laborator tekshiruv natijalarini tahlil qilish;
- shizofreniyada uchraydigan shoshilinch holatlarni bartaraf etish;
- shizofreniya bilan kasallangan bemorlarda kompleks davolash va rehabilitatsiya choralari o‘tkazish;
- neyroleptiklarning nojo‘ya ta’sirlarini oldini olish;
- psixoterapevtik usullarini qo‘llash;
- elektrotitroq va insulinkomatoz davolash usulini o‘tkazish;
- shizofreniya bilan kasallangan bemorlarda mehnat, sud-psixiatrik ekspertizasini o‘tkazish;
- zarur tibbiy hujjatlarni to‘la hajmda olib borish.

**Fan bo‘yicha kurs ishi.**

Fan bo‘yicha kurs ishi namunaviy o‘quv rejada ko‘zda tutilmagan.

**«Psixiatriya» mutaxassisligi bo‘yicha Modul davomida egallanadigan amaliy ko‘nikmalar ro‘yxati:**

	Tekshiruv usuli nomlanishi
1	Ruhiy bemorlarning shoshilinch hospitalizatsiyasiga ko‘rsatmalarni aniqlash
2	Ambulator va statsionar sharoitlarda davolanish uchun ko‘rsatmalarni qiyoslash
3	Bemorning ruhiy statusini baholash
4	Asosiy laborator tekshiruvlarini o‘tkazish va ularning natijalarini baholash
5	Patopsixologik tekshiruv o‘tkazish va ularning natijalarini baholash
6	Paranoid sindrom bilan bemorlarni ruhiy statusini yoritish
7	Parafren sindrom bilan kasallangan bemorlarning ruhiy statusini baholash
8	Kandinskiy-Klerambo sindrom bilan bemorlarning ruhiy statusini baholash.
9	Affektiv sindrom bilan bemorning ruhiy statusini baholash.
10	Depressiv sindrom bilan kasallangan bemorlarni davolash.
11	Maniakal sindrom bilan bemorning ruhiy statusini baholash.
12	Disforik sindrom bilan bemorning ruhiy statusini baholash.
13	Amnestik sindrom bilan bemorning ruhiy statusini baholash.
14	Nevrotik sindrom bilan bemorning ruhiy statusini baholash.
15	Astenik sindrom bilan bemorlarni ruhiy holatini baholash.

**Modul davomida o‘quv (klinik) amaliyotni tashkil etish bo‘yicha umumiy ko‘rsatma va tavsiyalar:**

“Umumiy psixiatriya ” fanini o‘rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va sog‘liqni saqlash tizimidagi amaliy masalalarni yechishda ko‘nikma hosil qilish uchun mustaqil ta‘lim tizimiga asoslanib, kafedra o‘qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo‘shimcha adabiyotlarni o‘rganib hamda internet saytlaridan foydalanib referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy mashg‘ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko‘rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

#### **4. Mustaqil ta‘lim va mustaqil ishlar, tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

##### **4.1. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro‘yxati:**

1. Kandinskiy-Klerambo sindromi.
2. Parafren sindromi.
3. Gebefrenik sindromi.
4. Paranoid sindromi.
5. Isterik sindromi..
6. Disforik sindromi.
7. Ipoxondrik sindromi.
8. Korsakov amnestik sindromi.
9. Katatonik sindromi.
10. Maniakal sindromi.
11. Depressiv sindromi.
12. Fobik sindromi.

##### **4.2. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:**

- \* darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan mavzularini o‘rganish;
- \* tarqatma materiallar bo‘yicha nazariy mashg‘ulotlar qismini o‘zlashtirish;
- \* komp’yuter texnologiyalari tizimlari bilan ishlash;
- \* maxsus adabiyotlar bo‘yicha referat va konspektlar tayyorlash;
- \* talabaning o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan adabiyotlar, monografiya va ilmiy to‘plamlarni chuqur o‘rganish;
- \* interaktiv va muammoli o‘qitish jarayonida faol qatnashish;
- \* masofaviy (distatsion) ta‘limni tashkil etishda qatnashish

##### **4.3. Mustaqil ta‘lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha umumiy ko‘rsatma va tavsiyalar:**

Modul (“Umumiy psixiatriya ”) bo‘yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘tkaziladi.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda qo‘yidagi shakllardan foydalaniladi: auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va sog‘liqni saqlash tizimidagi amaliy masalalarni yechishda ko‘nikma hosil qilish uchun mustaqil ta‘lim tizimiga asoslanib, kafedra o‘qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo‘shimcha adabiyotlarni o‘rganib hamda internet saytlaridan foydalanib

referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy mashg'ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

***Kurs ishi loyihasi rejada ko'zda tutilmagan.***

## **5. Malakaviy amaliyotni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Malakaviy amaliyot davrida magistratura talabasi kunma-kun malakaviy amaliyot jurnali shaklida to'ldirib boradi. Amaliyot rahbari tomonidan har bir amaliyot kuni davrida bajarilgan ishlar hajmi baholanadi va kundalik imzolanadi.

Malakaviy amaliyot jurnalidagi ma'lumotlar talabaning amaliy ko'nikmalarga ega bo'lganlik darajasi haqida ma'lumot beradi.

Malakaviy amaliyot tugagandan so'ng malakaviy amaliyot jurnali oxirida amaliyotga javobgar shaxs tomonidan talabaning ishi baholanadi va unga tavsifnoma yoziladi, u muassasa muhri bilan tasdiqlanadi va malakaviy amaliyot jurnali topshiriladi. Agar bajarilgan ishni ifoda etgan kundalik topshirilmasa, amaliyot o'tilmagan deb hisoblanadi.

Malakaviy amaliyotni yakuniy baholashini tuzilgan komissiya amalga oshiradi. Komissiya a'zolari OTM rektori tomonidan buyruq asosida tuziladi.

Malakaviy amaliyotining yakuniy baholash natijalari komissiya tomonidan qaydnoma varaqasiga kiritiladi va dastur direktori tomonidan reyting daftarchasiga to'ldiriladi. Malakaviy amaliyot dasturini (sababli, sababsiz) bajarmagan talabalar yakuniy baholashga kiritilmaydi va akademik qarzdor talaba sifatida muammolari magistratura bo'limi va rektorat tomonidan ko'rib chiqiladi va individual qaror qabul qilinadi (rasmiylashtiriladi)

## **6. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari**

### **6.1. Asosiy adabiyotlar**

1. Клинические разборы в психиатрической практике / Под ред. Проф. А.Г. Гофмана. - М.: МЕДпресс - информ, 2006. – 704 с.
2. Морозов В.М. Избранные труды. – М.: Медиа медика, 2007. – 292 с.
3. Психиатрия: национальное руководство / под ред. Т.Б. Дмитриевой, В.Н. Краснова, Н.Г. Незнанова, В.Я. Семке, А.С. Тиганова. – М.: ГЭОТАР – Медиа, 2009. – 1000с
4. Снежневский А.В. Общая психопатология: Курс лекций. М.: МЕДпресс-информ, 2008. – 208с.
5. Introductory textbook of psychiatry / Donald W. Black, Nancy C. Andreasen.— Sixth edition. 760 p..

### **6.2. Qo'shimcha adabiyotlar.**

1. Рациональная фармакотерапия в психиатрической практике: руководство для практикующих врачей / Под общ. ред. Ю. А. Александровского, Н. Г. Незнанова. — Москва: Литтерра, 2014. — 1080 с.
  2. Алимов Х.А, Алимов У.Х., “Психиатрия клиникасининг мукаддимаси” Ташкент 1997.
  3. Мурталибов Ш.А с соавт. “Психиатрия маълумотнома” 1993.
  4. Ходжаева Н.И., Шоюсупова А.У., «Психиатрия» Ташкент 2010.
5. Стандарты ведения больных. Клинические рекомендации. ИГ "ГЕОТАР-Медия, 2008.
6. Шамсиев Э.С., Турсунходжаева Л.А., «Психотерапия»-Т.:2011.
  7. Coeytaux A., Jallon P., Morabia A. Incidence of status epilepticus in French-speaking Switzerland: (EPISTAR). Neurology 2000;55:693–97.
  8. Franken I.H., Hendriks V.M., Stam C.J., Van den Brink W. A role for dopamine in the processing of drug cues in heroin dependent patients // Eur. Neuropsychopharmacol. – 2004. – Vol. 14 (6). – P. 503–508.
  9. Knake S., Rosenow F., Vescovi M. et al. Incidence of status epilepticus in adults in Germany: prospective, population-based study. Epilepsia 2001;42:714–
  10. Maher A.R., Maglione M., Bagley S. et al. Efficacy and comparative effectiveness of atypical antipsychotic medications for off-label uses in adults: a systematic review and meta-analysis // JAMA. – 2011. – Vol. 306 (12). – P. 359—1369.
11. Mann K. Pharmacotherapy of alcohol dependence: a review of the clinical data // CNS-Drugs. – 2004. – Vol. 18 (8). – P. 485–504.
12. Oxford Textbook of Psychiatry / Gelder M., Gath D., Mayou R. – Second edition. 300 p..
13. Wachtel S.R., Ortengren A., de Wit H. The effects of acute haloperidol or risperidone on subjective responses to methamphetamine in healthy volunteers // Drug-Alcohol Depend. – 2002. – Vol. 68 (1). – P. 23–33.

#### **Internet saytlari**

<http://www.neuroleptic.ru>  
<http://www.psychiatry.ru/>  
<http://www.ncbi.nlm.nih.gov/pubmed>  
<http://psychiatr.ru/>  
<http://www.psychiatrist.com/>  
<http://www.rcpsych.ac.uk/>